

“SULTON”, “C-8294” G‘O‘ZA NAVLARINING O‘SISH RIVOJLANISHIGA KO‘CHAT QALINLIGINING TA‘SIRI

Yusupov Hasan Rustamovich, q.x.f.f.d.,
Urganch davlat universiteti, Urganch
ORCID: 0000-0002-6669-7846

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm viloyati tuproq iqlim sharoitida ekilayotgan yangi istiqbolli “Sulton” va “C-8294” g‘o‘za navlarning o‘shishi va rivojlanishiga ekish tizimi hamda chilpish muddatlarini ta‘sirini o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm viloyati, nav, variant, ko‘chat qalinligi, ekish tizimi, chilpish, o‘simlik bo‘yi, hosil shoxi, gul, ko‘sak, hosil elementlari.

Аннотация. В данной статье было изучено влияние схемы посадки и сроков окуживания на рост и развития новых перспективных сортов “Султан” и “С-8294”, посаженных в почвенно-климатических условиях Хорезмской области

Ключевые слова: Хорезмская область, сорт, вариант, толщина рассады, схема посадки, чеканка, высота растения, ветвь культуры, цветок, бутон, элементы культуры.

Abstract. This article studies the effect of planting scheme and weeding periods on the growth and the development of the new promising cotton varieties “Sultan” and “C-8294” grown in the soil and climatic conditions of Khorezm region.

Key words: Khorezm region, variety, version, seedling thickness, planting scheme, chipping, plant height, crop branch, flower, bud, crop elements.

Kirish. Hozirgi kunda respublikamiz paxtachiligida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda, ya‘ni muayyan tuproq-iqlim sharoitlari uchun mos g‘o‘za navlarini tanlash va parvarishlashning maqbul agrotexnologiyalarini ishlab chiqish; g‘o‘zani mineral o‘g‘itlar bilan oziqlantirish; maqbul ko‘chat qalinliklarini belgilash; sug‘orish me‘yorlari va muddatlarini to‘g‘ri tashkillashtirish hamda chilpishni turlicha usul va muddatlarda olib borish orqali paxtadan yuqori hosil etishtirishga katta e‘tibor qaratilgan.

So‘ngi yillarda g‘o‘zaning o‘shishi, rivojlanishi va hosildorligiga ko‘chat qalinligi va chilpish muddatlarining ta‘sirini ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilmoqda jumladan SH.Abdualimovning tavsiyalarida unumdor tuproqlarda bir tup g‘o‘zada 12-13 dona hosil shox, o‘rtacha unumdor tuproqlarda 11-12 dona hosil shox va unumdorligi past yerlarda 10-11 hosil shoxi to‘planganda chilpish o‘tkazish tavsiya etiladi. Qo‘shqator usulda ekilgan yerlarda bu tadbirni g‘o‘za tupida 9-10 dona shox hosil bo‘lganda o‘tkazish mumkinligini takidlagan.[1]

S.Allanazarov va boshqalar Toshkent viloyati tuproqlari sharoitida, C-6560 g‘o‘za navidan yuqori hosil olish uchun 80-90 va 100-110 ming tup/ga ko‘chat qoldirilib, ko‘chat qalinligiga mos ravishda 13-14 hosil shoxida chilpish o‘tkazish zarur ekanligi va chilpish o‘tkazilmagan variantga nisbatan 3,7-2,6 s/ga ko‘proq hosil olinishi mumkinligi aniqlangan. Shuningdek, O‘zPITI-202 g‘o‘za navini turli ko‘chat qalinligida parvarishlab, unda chilpish tadbiri o‘tkazilganda, eng yuqori ko‘rsatkichlar g‘o‘zani 100-110 ming ko‘chat qalinligida parvarishlab, 13-14 hosil shoxida chilpish o‘tkazish kerak ekanligi va bunda g‘o‘zadan 2,7 s/ga qo‘shimcha hosil olishga erishish mumkinligi kuzatilgan.[2]

SH. Bekmetova olib brogan ilmiy tajribalarida Ravnaq-1 g‘o‘za navida maqbul ko‘chat qalinligi 80-90 ming tup/ga, yaganalash 1-2 chinbargda o‘tkazilib, chilpish kimyoviy usulda va 13-14 hosil shoxida qo‘lda o‘tkazilganda bir dona ko‘sakdagi paxta vazni 6,4 6,2 g ni tashkil etib, chilpish o‘tkazilmagan variantga nisbatan 0,8-0,6 g yuqori bo‘lgan. O‘zPITI-103 g‘o‘za navida esa bir ko‘sak vazni 5,3-5,2 g yoki nazoratga nisbatan 0,5-0,4 g ga og‘irroq bo‘lganligi qayd etilgan.[3]

Materiallar va uslublar. Tajribalar 2023-yilda Xorazm viloyati PSU va YAITI Xorazm ITS sharoitida g‘o‘zaning “Xorazm-127” navi ishlab chiqarish sharoiti bo‘yicha 60x15-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 12-14 hosil shoxi shakllanganida chilpish tadbiri o‘tkazildi. G‘o‘zaning yangi “Sulton” va “C-8294” navlari ikki xil, 60x12-1 va 60x15-1 tizimda ekilib, 10-11; 12-14; 15-16 hosil shoxlari shakllanganida chilpish tadbirlari olib borildi. Olingan natijalar g‘o‘zaning “Xorazm-127” naviga taqqoslandi.

Natijalar va munozara. G‘o‘za navlarini 1-avgust holatiga poya balandligi, hosil shoxlari soni, hosil elementlari soni hamda ko‘saklar soni variantlar kesimida tahlil qilib chiqilganida, g‘o‘zaning “Xorazm-127” navi 60x15-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o‘tkazilgan nazorat variantga nisbatan poya balandligi bo‘yicha yuqori natijalar g‘o‘zaning “Sulton” navi 60x12-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 12-14 va 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri olib borilgan variantlarda aniqlanib, 0,9 sm dan 1,6 sm gacha baland bo‘lganligi kuzatilgan. (1-jadval)

G‘o‘za navlarida hosil shoxlarining shakllanish darajasi variantlar kesimida tahlil qilinganida esa g‘o‘zaning “Xorazm-127” navi 60x15-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o‘tkazilgan nazorat variantga nisbatan g‘o‘zaning “Sulton” navi 60x12-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o‘tkazilgan variantda 2,7 dona/tup, chigitlar 60x15-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 12-14 va 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri olib borilgan variantlarda 0,2 donadan 1,8 dona/tup gacha, g‘o‘zaning “C-8294” navi 60x12-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri olib borilgan variantda 2,3 dona/tup, chigitlar 60x15-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri olib borilgan variantda 2,0 dona/tup gacha yuqori bo‘lganligi qayd etilgan.

G‘o‘za navlarining bir tupida hosil elementlarining shakllanishi variantlar kesimida o‘rganib chiqilganida g‘o‘zaning “Xorazm-127” navi 60x15-1 tizimda ekilib, o‘sov davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o‘tkazilgan nazorat variantga

Ekish tizimasi va chilpish muddatlarini g'oz'za navlarining o'sish va rivojlanishiga ta'siri, 2023 yil.

Var	Navlar	Ekish tizimi	Chilpish muddatlari	1-avgust			
				Bosh poya balandligi, sm	Hosil shoxi, dona	Hosil elementlari, dona	Ko'saklar soni, dona
1	Xorazm-127	60x15-1	12-14	96,3	13,2	17,5	4,8
2	Sulton	60x12-1	10-11	86,5	10,5	10,7	3,3
3			12-14	97,2	12,7	12,6	5,5
4			15-16	97,9	15,9	14,7	6,6
5		60x15-1	10-11	88,2	10,3	11,6	4,5
6			12-14	95,9	13,4	17	5,8
7			15-16	96,2	15,0	18,7	6,8
8		C-8294	60x12-1	10-11	76,2	10,2	10,6
9	12-14			80,1	12,8	14,1	5
10	15-16			80,5	15,5	14,3	6,6
11	60x15-1		10-11	78,3	10,8	11,7	4,5
12			12-14	87,7	12,6	14,6	5,8
13			15-16	89,4	15,2	15,2	7,9

nisbatan yuqori natijani g'oz'zaning "Sulton" navi 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan variantda qayd etilib, 1,2 donaga ko'p bo'lganligi aniqlangan bo'lsa, boshqa barcha variantlarda nazorat variantiga nisbatan 0,5 dona/tup dan 6,8 dona/tup gacha kam bo'lganligi qayd etilgan.

G'oz'za navlarida ko'saklar soni tahlil qilinganida esa g'oz'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan nazorat variantga nisbatan g'oz'zaning "Sulton" navi chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 va 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan variantlarda 0,7-1,8 dona/tup gacha, chigittlar 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 va 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan variantlarda 1,0-2,0 dona/tup gacha, g'oz'zaning "h" navi chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 va 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan variantlarda 0,2-1,8 dona/tup gacha, chigittlar 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 va 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan variantlarda 1,0-3,1 dona/tup gacha yuqori bo'lganligi aniqlangan.

G'oz'za navlarida rivojlanish fazalari kesimida barg yuzasining shakllanishi o'rganib chiqilganida, g'oz'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan nazorat 1-variantga nisbatan shonalash fazasida "Sulton" navi chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 2-3-4 variantlarda 1159,3-1244,4-1204,2 m²/ga, chigittlar 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri olib borilgan 7-variantda 43,8 m²/ga, "C-8294" navi chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 8-9-10 variantlarda 830,0-839,7-888,4 m²/ga, gullash fazasida "Sulton" navi chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 2-3-4 variantlarda 3709,4-3297,7-2876,1 m²/ga, "C-8294" navi

chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 8-9-10 variantlarda 2743,1-2778,3-2757,5 m²/ga, hosil to'plash fazasida "Sulton" navi chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 3-4 variantlarda 2887,0-4065,3 m²/ga, chigittlar 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri olib borilgan 7-variantda 88,4 m²/ga gacha yuqori natijalar aniqlangan bo'lsa, hosil to'plash fazasida "C-8294" navi chigittlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 8-9-10 variantlarda g'oz'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan nazorat 1-variantga nisbatan 1537,6-1248,9-1084,6 m²/ga gacha kamayib borganligi kuzatilgan.

G'oz'za navlarini rivojlanish fazalari bo'yicha biologik quruq massa to'plash jadalligi variantlar kesimida tahlil qilib chiqilganida, g'oz'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan nazorat 1-variantga nisbatan faqat g'oz'zaning "Sulton" navi chigittlari 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 7-variantda yuqori natija qayd etilib, shonalash fazasida 0,19 g/tup, gullash fazasida 0,30 g/tup, pishish fazasida 6,40 g/tup ko'p bo'lganligi aniqlangan. Qolgan barcha variantlarda o'simliklarning biologik quruq massa to'plashi g'oz'zaning "Xorazm-127" navi ekilgan nazorat 1-variantda "Sulton" navi ekilgan variantlarga nisbatan 2-3 chinbarg chiqarish fazasida 0,01-0,04 g/tup, shonalash fazasida 0,02-0,41 g/tup, gullash fazasida 0,40-4,70 g/tup, pishish fazasida 4,20-29,10 g/tup, "C-8294" navi ekilgan variantlarga nisbatan 2-3 chinbarg chiqarish fazasida 0,03-0,06 g/tup, shonalash fazasida 0,26-0,63 g/tup, gullash fazasida 1,30-6,10 g/tup, pishish fazasida 9,10-34,70 g/tup gacha yuqori bo'lganligi qayd etilgan.

G'oz'za navlarini gullash dinamikasiga (2022 y.) qo'llanilgan omillarning ta'siri variantlar kesimida tahlil qilinganida, g'oz'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida

12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan nazorat 1-variantga nisbatan "Sulton" navi chigitlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 2-3-4 variantlarda 25.06 kuni 3,0-3,3 foizga, 30.06 kuniga kelib 3,9-4,2 foizga, chigitlar 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 5-6-7 variantlarda 25.06 kuni 4,0-4,4 foizga, 30.06 kuniga kelib 4,8-5,3 foizga, "C-8294" navi chigitlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 8-9-10 variantlarda 25.06 kuni 9,2-9,7 foizga, 30.06 kuniga kelib 6,2-6,8 foizga, chigitlar 60x15-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 10-11; 12-14; 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 11-12-13 variantlarda 25.06 kuni 11,5-11,6 foizga, 30.06 kuniga kelib 7,3-7,5 foizga yuqori bo'lganligi kuzatilgan.

G'o'za navlarini o'suv davrida qo'llanilgan agrotexnik tadbirlarni paxta hosildorligiga ta'siri variantlar kesimida aniqlab chiqilganida, chigit ekish tizimi va chilpish muddatlarining ta'siri sezilarli bo'lganligi kuzatilib, g'o'zaning "Xorazm-127" navi 60x15-1 tizimda

ekilib, o'suv davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan nazorat 1-variantga nisbatan "Sulton" navi chigitlari 60x12-1 tizimda ekilib, o'suv davrida 12-14 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 3-variantdan 2,0 s/ga, chigitlar 60x15-1 tizimda ekiib, o'suv davrida 12-14 va 15-16 hosil shox shakllanganida chilpish tadbiri o'tkazilgan 6-7 variantlardan 0,4-0,8 s/ga qo'shimcha paxta hosili olinganligi qayd etilgan.

G'o'zaning "C-8294" navi chigitlari 60x12-1 va 60x15-1 tizimda ekilgan barcha variantlarda g'o'zaning "Xorazm-127" navi chigitlari 60x15-1 tizimda ekilgan nazorat variantiga nisbatan yuqori paxta hosildorligiga erishilmadi. Aksincha, 60x12-1 tizimda ekilgan variantlardan 1,8-8,3 s/ga, 60x15-1 tizimda ekilgan variantlardan 4,5-7,8 s/ga gacha paxta hosildorligi kamayib borganligi kuzatilgan.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shularni xulosa qilish mumkinki eng yuqori ko'rsatkich Sulton navini 60x12-1 ekish sxemasida ekilib, 15-16 hosil shoxida chilpish o'tkazilgan variantda kuzatilgan bo'lib, nazorat variantdagi Xorazm-127 naviga nisbatan o'simlik bo'yi 0,6-1,6 sm ga, ko'saklar soni 0,9-1,4 donaga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdualimov SH. Chilpish muhim tadbir. // O'zbekiston qishqloq va suv xo'jaligi. Toshkent, 2023, №8, b-9.
2. Allanazarov S, Sindarov O, Egamberdiyev R, Xaitbayeva J, Murodova D. Turli ko'chat qalinligida parvarishlangan yangi, rayonlashgan va istiqbolli g'o'za navlarida chilpishning samaradorligi. // O'zbekiston qishqloq va suv xo'jaligi. Toshkent, 2022, Maxsus son, b-6-8.
3. Bekmetova SH., Bir dona ko'sakdagi paxta vazniga ko'chat qalinligi, yaganalash va chilpish muddatlarining ta'siri // Agro kimyo himoya va o'simliklar karantini jurnali. Toshkent-2025, №1, b-127-128.